



Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-iyul holatiga) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan



30917

Faoliyat
ko'rsatayotgan




29415


Yangi tashkil bo'lgan




5039



Faoliyat
ko'rsatayotgan



Faoliyat
ko'rsatmayotgan



Yangi tashkil
bo'lgan

2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 5039 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2636 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6601 ta (28,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29415 tani tashkil etgan.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-iyul holatiga



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda



27,8 %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyul holatiga 30917 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,8 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,1 % savdo, 19,1 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (7444 ta) savdo, (5903 ta) sanoat, (2645 ta) qurilish, (2339 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2217 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (963 ta) tashish va saqlash, (641 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (487 ta) axborot va aloqa hamda (8278 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **29415** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6601 ta (28,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %
(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqar)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Samarqand shahri (9194 ta), Urgut (2587 ta), Pastdarg'om (2356 ta), Samarqand (2094 ta) va Payariq (1607 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (655 ta), Paxtachi (739 ta) hamda Nurobod (801 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 5039 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2636 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1680 ta), sanoat (1230 ta), qurilish (446 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (368 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (77 ta), axborot va aloqa (101 ta) hamda tashish va saqlash (115 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



368

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



520

Sanoat



1230

Axborot va aloqa



101

Qurilish



446

Tashish va saqlash



115

Savdo



1680

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



77


Boshqa turlar





502

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1550 ta), Samarqand (481 ta), Pastdarg'om (410 ta) va Ishtixon (318 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot tumanida (111 ta), Paxtachi tumanida (121 ta) hamda Narpay tumanida (121 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 23940 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



465 ta


O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati birlikda.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 465 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 38,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 333 tasi qo'shma, 132 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 226 ta (jamidagi ulushi 48,6 %), Urgut tumanida 44 ta (9,5 %) va Jomboy tumanida 36 tani (7,7 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Narpay 5 ta (1,1 %), Paxtachi 6 ta (1,3 %), Kattaqo'rg'on 8 ta (1,7 %), Nurobod 8 ta (1,7 %) hamda Qo'shrabot tumanlarida 9 tani (1,9 %) tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 81 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 14 ta, Turkiya Respublikasi – 14 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta va Koreya Respublikasi – 6ta korxonalar yangi tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 36 ta sanoat, 11 ta savdo, 10 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9 ta qurilish va 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-iyul holatiga)




2019-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23802 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 34,9 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida 4806 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2625 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
subyektlarining eng kichik
ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23802 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7029 ta (29,5 %) - savdo, 5580 ta (23,4 %) - sanoat, 2497 ta (10,5 %) - qurilish, 2079 ta (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2104 ta (8,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 901 ta (3,8 %) - tashish va saqlash, 502 ta (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 455 ta (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2655 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1677 ta, sanoat 1228 ta, qurilish 445 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 366 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 59 ta, axborot va aloqa 101 ta hamda tashish va saqlashda 115 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (1503 ta), Samarqand (467 ta), Pastdarg'om (396 ta) va Urgut (313 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (101 ta), Narpay (113 ta) hamda Paxtachi tumanlarida (116 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyul holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyul holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,6 % yoki 1185 tasi sanoat, 27,7 % yoki 1009 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,0 % yoki 763 tasi savdo, 8,2 % yoki 298 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 37 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 32 tasi qurilish, 0,8 % yoki 29 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,4 % yoki 271 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017 yilda 1169 ta, 2018 yilda 733 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-iyunda ushbu ko'rsatkich 418 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 315 taga tugatish kamaygan.



Tugatilgan 418 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 108 tasi (25,8 %) savdo, 87 tasi (20,8 %) sanoat, 28 tasi (6,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 49 tasi (11,7 %) qurilish, 29 tasi (6,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 11 tasi (2,6 %) tashish va saqlashda, 11 tasi (2,6 %) axborot va aloqada, 10 tasi (2,4 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 85 tasi (20,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi .**



Tel.:71-230-85-42(43)